

## “1tasi narxiga 3ta” aksiyasi qoidalari

2025 yil 10-apreldagi nashr

“1tasi narxiga 3ta” aksiyasi (keyingi o‘rinlarda Aksiya deb yuritiladi) “Humans” MChJ tomonidan o‘tkaziladi, manzil: 100047, O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Maxtumquli ko‘chasi, 2-uy, STIR 306624856 (keyingi o‘rinlarda “Humans” deb yuritiladi) va noaniq doiradagi shaxslarga qaratilgan

### 1. Aksiya haqida ma'lumot

1.1. Ushbu Qoidalarda katta harflar bilan yozilgan so'zlar atamalar hisoblanadi. Atamalarning ma'nosi, agar ushbu Qoidalarda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, Provyayder tomonidan tasdiqlangan va [www.humans.uz](http://www.humans.uz) saytida joylashtirilgan Humans aloqa xizmatlarini ko'rsatish shartlarida, shuningdek, Tariflar tavsifida keltirilgan.

1.2. Aksiya ishtirokchilari - Aksiya boshlangan sanadan keyin Humans savdo nuqtalarida Humans aloqa xizmatlarini ko'rsatish shartlarini qabul qilish orqali Provyayder bilan Aloqa xizmatlarini ko'rsatish Shartnomasini tuzgan va Shartnoma tuzishda 90 kunlik Hisob davri bilan "+1 sovg'a" qatoridan paketlarni ulagan Mijozlar jismoniy shaxslar.

1.3. Aksiya o‘tkaziladigan hudud: O‘zbekiston Respublikasi.

1.4. Aksiya muddati: 10.04.2025 - 10.05.2025.

### 2. Aksiya tavsifi

2.1. Aksiya o‘tkazilishi davrida Aksiya ishtirokchisi Humans bilan aloqa xizmatlarini ko'rsatish Shartnomasini tuzganida va Humans savdo nuqtalarida to'lovni amalga oshirganida, 90 kunlik Hisob davri bilan "+1 sovg'aga" turkumidagi paketlarni birinchi Hisob davri uchun 50% chegirma bilan ulashi mumkin.

1-jadval. Aksiya davridagi va birinchi 90 kun tugaganidan keyin paketlar narxlari.

<b>90 kunlik paketlar</b>	<b>90 kunlik “+1 sovg’a’aga“ paketining bazaviy narxi (UZS)</b>	<b>“1tasi narxiga 3ta” Aksiyasi bo’yicha narxi (UZS)</b>
78 Gb (26*3) va Cheksiz daqiqa	60 000	30000
120 Gb (40*3) va Cheksiz daqiqa	90 000	45000
Cheksiz Gb va 99 daqiqa (33*3) 90 kunga	100 000	50000
Cheksiz Gb va Cheksiz daqiqa 90 kunga	130 000	65000

"+1 sovg’a’aga" qatoridan "300 MB va Cheksiz daqiqa" va "21 GB va Cheksiz daqiqa" paketlari Aksiyada ishtirok etmaydi, ularga chegirma taqdim etilmaydi.

2.2. Aksiyaviy paketi uchun to'lovni Keshbek orqali amalga oshirib bo'lmaydi. Aksiyadagi paketni ilova orqali ulash mumkin emas.

2.3. Ulangan Aksiyaviy paketning amal qilish muddatini uzaytirish 1-jadvalda ko'rsatilgan Asosiy narx bo'yicha amalga oshiriladi.

### 3. Yakuniy qoidalar

3.1. Ushbu Qoidalar Humans saytida e'lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi. Humans bir tomonlama tartibda ushbu Qoidalarni o'zgartirish yoki bu haqida Saytda tegishli xabarni joylashtirish orqali Aksiyani bekor qilish huquqiga ega. Xabar berish sanasi tegishli ma'lumotlarning Saytda e'lon qilingan sanasi hisoblanadi. Saytda tegishli ma'lumotlar e'lon qilingan paytdan boshlab qoidalar o'zgartirilgan va Aksiya bekor qilingan hisoblanadi.

3.2. Aksiya Ishtirokchisi tomonidan aksiya muddati davomida aksiyaviy paketni faollashtirish jismoniy shaxslarga qaratilgan oferta bo'lib, ushbu Qoidalarga to'liq va so'zsiz roziligini bildiradi.